



**YANGI KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ
GAROV**

Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari

va huquq ta'limi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy qonun bo'lgan konstitutsiya, uning bugungi demokratik, fuqarolik jamiyatini qurishdagi o'rni, yangilangan normalarning mazmun-mohiyati, taraqqiyotni, inson huquq va erkinliklarini yanada yuksaltirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson, huquq, demokratiya, qonun, oila, qonun, huquqiy davlat, adolat, qonun ustuvorligi

**NEW CONSTITUTION - A GUARANTEE OF OUR FREE AND
PROSPEROUS LIFE**

Annotation: this article will highlight the Constitution, which is the main law, its role in the construction of today's Democratic, civil society, the content and essence of the updated norms, the importance in the further elevation of progress, human rights and freedoms.

Keywords: Constitution, man, law, democracy, law, Family, Law, Legal State, Justice, rule of law

Kirish

Konstitutsiya men hech qachon tark etmaydigan yo'riqnomadir.

Jorj Vashington

Bugungi zamonaviy demokratik davlatlarni asosiy qonun-konstitutsiyasiz tasavvur qilish juda mushkul. Konstitutsiya-jamiyat taraqqiyotini tartibga solishga qaratilgan eng muhim tarixiy kashfiyotlardan biri sifatida hozirgi davrga qadar xizmat qilmoqda. Konstitutsiya fuqarolarning asosiy huquq va burchlarini, shaxs, jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzish



tartibini hamda ularning ish faoliyatlari asosiy prinsplari va vakolatlarini belgilab beradi. Hozirda "dunyo konstitutsiyaviy xaritasi"da 500 dan ortiq faol Konstitutsiya mavjud bo'lib, ulardan 200 ga yaqini mustaqil davlatlarning konstitutsiyalari va 300 dan ortig'i federatsiyalar subyekti konstitutsiyalari hisoblanadi.

Butun dunyoda globallashuvning zamonaviy sharoitida konstitutsiyaviy rivojlanishning o'ziga xos modellarini izlash jadal olib borilmoqda. Shu bilan birga, konstitutsiya davlatning asosiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatyaptiki, insonni oliy qadriyat darajasiga olib chiqishga oid iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni izchil amalga oshirishda aynan jamiyat va davlatni modernizatsiya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston bugun o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish, uning maqsadi, ko'lamiga monand va munosib bo'lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etdi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yoqlab ovoz berdi. Yangilanish natijasida bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bevosita xalq tomonidan qabul qilingan, tariximizda to'g'ridan-to'g'ri amalga kiritilgan birinchi hujjat bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3,5 baravarga ko'paydi. Yangilangan Konstitutsiyamizda insonlarning huquqlari ko'payganining guvohi bo'lamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida; "Bosh maqsadimiz-har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni



mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”¹, deb ta’kidlagan edi. Tom ma’noda yurtboshimizning ushbu fikrlari to’g’ri, biz har birimiz konstitutsiyani mening konstitutsiyam deya faxrlansak arziydi, chunki, konstitutsiyada bizning fuqaro sifatidagi huquq va erkinliklarimiz, davlat bilan huquqiy aloqalarimizning huquqiy asosi o’z aksini topgan.

Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A.Saidov “Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida kishilik sivilizatsiyasining yutug’i, umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir”, “Konstitutsiya huquqiy bilimlarning alifbosidir”² degan chuqur huquqiy-falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz konstitutsiyasini o’rganish, bilish, unga rioya qilish va Asosiy qonunimiz bilan faxrlanishni albatta zarur, deb hisoblaydi.

Asosiy qism

Konstitutsiya-har bir davlat huquq tizimining cho’qqisi hisoblanadi. Davlatdagi amalga oshirilayotgan siyosatning nechog’lik adolatli bo’lishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari yuqori daraja ta’minlanishi, aynan mamlakatdagi Konstitutsiyaning xalqchil, insonparvar g’oyalarni o’zida mujassam etiganligi bilan belgilanadi. Konstitutsiyada xalqimizga xos mehr-oqibat, o’zga millat vakillariga hurmat, bilimga intilish, or-nomus va qadr-qimmat, bag’rikenglik va hayo kabi fazilatlar o’z ifodasini topdi. Unda muqaddas Vatanimiz xalqiga xos adolat, rostgo’ylik, oliyanoblik, mardlik va saxovat kabi yuksak fazilatlar ham mujassam etiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik prinsplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitmaslik g’oyalari asoslanadi. Bunda yurtimizda inson huquqlari madaniyati tobora yuksalayotgani, inson hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat ruhi shakllanayotgani alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyamiz Muqaddima, 6 bo’lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo’lib, har bir bo’lim, bob va moddalarda inson qadri,

¹ Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-may kuni Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo’lgan uchrashuvda so’zlagan nutqidan.

² <https://cyberleninka.ru>



erkinligi, huquq va burchlari to'la-to'kis ifoda etilgan. Bosh qomusimiz Muqaddimasida O'zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, "fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida" qabul qilgani alohida ta'kidlangan. Shu ma'noda, Asosiy Qonunimiz-biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki, milliy g'urur-iftixor, kerak bo'lsa, ushbu zaminda istiqomat qiladigan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston-suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat ekanini qat'iy belgilab qo'yilgan³. Shu o'rinda bu tushunchalar izohiga biroz to'xtalsak.

Huquqiy davlat-huquq ustuvorligi ta'minlangan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

Ijtimoiy davlat-har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Dunyoviy davlat-diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki, Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat hisoblanadi.

Konstitutsiyaning eng asosiy yuridik xususiyatlaridan biri-uning oliy yuridik kuchga ega ekanligidir. Konstitutsiyamizning 15-moddasida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, degan ustuvor qoida belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi uning siyosiy-huquqiy hujjatligi, parlamentda qabul qilinishining alohida tartibga egaligi, umumxalq ovozi, ya'ni referendum asosida qabul qilinishi, davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy strategik yo'nalishlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashda ham namoyon bo'ladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 5-bet. "O'zbekiston" Toshkent-2023



Qadimgi yunon faylasufi Protagorning “Barcha ashyolarning mezoni-insondir”⁴ degan fikri zamirida insonparvarlik g‘oyasi yotadi. Antik davrning ko‘plab olimlari barcha kishilarning tabiatan tengligi g‘oyasini ilgari surganlar, insonlarning ozod kishilar va qullarga bo‘linishiga qarshi bo‘lganlar. Inson qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat’i nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo‘ladi. Insonga tug‘ilgandan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga azaliy tegishlidir deb e’tirof etiladi.

Shaxsning yashash huquqi inson tug‘ilishi bilan vujudga keluvchi, uning biologik mavjudligini ta’minlaydigan va davlat tomonidan muhofaza etiladigan huquqdir. Insonning eng asosiy va muqaddas huquqi yashash huquqidir. Yashash huquqining ta’minlanishi davlatda demokratiyaning qay holatda ekanligini belgilab beradi. Konstitutsiyamizning 25-moddasida “yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi ta’qiqlanadi”⁵ deb belgilab qo‘yilgan. Insonning yashash huquqini mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsplari va normalaridan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda yurtimizda 2008-yi 1-yanvardan e’tiboran o‘lim jazosi bekor qilingan.

Konstitutsiyamizning 26-moddasiga ko‘ra, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Konstitutsiyamizda ushbu qoidaning aniq tarzda belgilab qo‘yilishi biz fuqarolarning sha’nimiz, qadr-qimmatimizning huquqiy jihatdan himoyada ekanligini anglatadi.

⁴ <https://uz.wikipedia.org>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” Toshkent-2023



Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanini ta'minlovchi 27-moddada, shuningdek, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi belgilangan. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi bu-asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi tamoyil bo'lib, aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha u aybsiz hisoblanadi va aybsizligini isbotlab berishga majbur emas. Mazkur qoida Konstitutsiyamizning 28-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Demak, sud hukmi qonuniy kuchga kirmasdan turib, shaxsni "qotil", "poraxo'r", "firibgar", "o'g'ri", "zo'ravon" yoki bir so'z bilan jinoyatchi singari iboralar bilan atab, uni aybdor shaxs sifatida ko'rsatilsa, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, konstitutsiya bizning iftixorimizdir. Davlatimizning taraqqiyoti, xalqimiz farovon, osoyishta hayot kechirishi aynan konstitutsiyamizdagi insonparvar go'yalarda o'z aksini topgan. Huquqlarimiz kafolati bu bizning konstitutsiyamizdir. Biz fuqarolar qomusimizni puxta o'rganishimiz, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega jamiyatning bir a'zosi sifatida ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonimizda albatta konstitutsiya normalariga tayanib faoliyat olib borishimiz zarur. Konstitutsiyamizdagi har bir norma-bu bizning manfaatlarimizga, yurtimiz istiqboliga xizmat qilishini chuqur anglab yetmog'imiz kerak. Huquqiy-demokratik davlat qurishning asosi avvalo, mamlakatda qonun ustuvorligi bilan belgilanar ekan, biz yoshlar yurtimiz taqdiriga befarq bo'lmasdan, erkin va farovon hayotimiz garovi bo'lgan asosiy qonunimiz Konstitutsiyamizni hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz, huquqiy



ongimiz, madaniyatimizni oshirib borsak, o'ylaymanki, jamiyatimiz yanada gullab yashnaydi, rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-may kuni Konstitutsiyaviy komissiya a`zolari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan nutqidan.
2. <https://cyberleninka.ru>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 5-bet. ``O'zbekiston' ' Toshkent-2023
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO 'JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.